

**MOLIYAVIY NAZORAT TIZIMINI SAMARALI AMALGA OSHIRILISHI
ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOTNI KAMAYTIRISHNING
NAZARIY ASOSLARI**

Jummaev Umid Nazarovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 29.08.2025

Revised: 30.08.2025

Accepted: 31.08.2025

KALIT SO'ZLAR:

*yashirin iqtisodiyot,
norasmiy sektor, qora
iqtisodiyot, soliqdan
qochish, korrupsiya,
uyushgan jinoyatchilik,
iqtisodiy barqarorlik..*

Maqolada yashirin iqtisodiyotning mohiyati, mazmuni va uning jamiyat hamda rasmiy iqtisodiyot bilan o'zaro bog'liqligi ilmiy asosda tahlil qilingan. Yashirin iqtisodiyot turli mamlakatlarda mavjud bo'lib, uning hajmi va ta'siri turlicha namoyon bo'lishi ta'kidlangan. Olimlarning ushbu hodisaga nisbatan qarashlari ikki xil yo'nalishda – uni iqtisodiy taraqqiyotga salbiy ta'sir etuvchi jinoyatkorlik negizi sifatida talqin qiluvchilar hamda uni innovatsion faoliyatning dastlabki shakli sifatida baholovchilar misolida ko'rib chiqiladi. Yashirin iqtisodiyot «ikkinchi» (oq yoqalilar), «kulrang» (norasmiy) va «qora» (maxfiy, uyushgan jinoyatchilikka asoslangan) shakllarga ajratilgan holda tahlil qilinadi. Uning shakllanish sabablari sifatida soliq va moliya siyosatidagi zaifliklar, bozor tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi, haddan ziyod ma'muriy cheklovlar va korrupsiya omillari ko'rsatilgan. Yashirin iqtisodiyotning rivojlanishi oqibatlarini jamiyat uchun ko'proq salbiy natijalarni yuzaga keltirishi, jumladan, byudjet tizimining izdan chiqishi, iqtisodiy resurslarning noqonuniy qayta taqsimlanishi, korxonalarining bankrotligi, aholining qashshoqlashuvi va

*kapitalning chetga chiqib ketishi kabi holatlar
misolida yoritilgan..*

Jahonning deyarli barcha mamlakatlarida yashirin iqtisodiyot mavjud bo'lib, uning ulushi turli mamlakatlarda turlicha. Olimlarning yashirin iqtisodiyotga munosabatlari ham turlichadir. Ba'zilar uni iqtisodiy taraqqiyotga, davlat iqtisodiyotining boshqaruviga salbiy ta'sir o'tkazishi va jinoiy faoliyat yuritilishining negizini tashkil qilishida to'laligicha ayblab salbiy baholasa, boshqalar iqtisodiyotning yangi yo'nalishlariga asos soluvchi va innovatsiyalar, avvalambor yashirincha, keyin esa rasmiy taraqqiy etishini e'tirof etadilar.

Yashirin iqtisodiyot nafaqat iqtisodiy ijtimoiy tuzilmalar, jamiyatdagi iqtisodiy mynocabatlapni o'z ichiga oluvchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy voqelik, balki, avvalo, jamiyat tomonidan nazorat qilib bo'lmaydigan, mamlakat aholisining bir qismini tashkil qiluvchilarning shaxsiy va guruhiiy manfaatlarini qondirish, ya'ni katta miqdorda qo'shimcha daromad (foyda) olishni ko'zlab davlat organlari boshqaruvi va nazoratidan yashirgan holda, davlat va nodavlat mulkidan hamda iqtisodiy boylik, tadbirkorlik qobiliyatidan jinoiy yo'l bilan foydalanishdir. U oshkor rasmiy iqtisodiyot bilan chambarchas bog'langan bo'lib, uning tarkibiy qismidir. Har bir yashirin faoliyat bir-biridan tubdan farq qiladi. shuning uchun ham yashirin iqtisodiyot muammolarini hal qilish uchun uning asosiy soha va segmentlarini ko'rsatib o'tish lozim.

Yashirin iqtisodiyot (shadow economy) deb davlat hisobi va nazoratidan tashqarida rivojlanadigan va shu sababdan rasmiy statistikada aks etmaydigan xo'jalik faoliyatiga aytiladi.

Yashirin iqtisodiyot sohasidagi faoliyat miqyosi va xarakterining o'zgaruvchanlik chegaralari juda kengdir – jinoiy faoliyatdan (masalan, narkobiznesdan) olinadigan katta daromadlardan to tuzatilgan jo'mrak uchun santexnik ustani bir shisha aroq bilan «mukofotlash»gacha. Yashirin faoliyatning turli xillari sifat jihatdan farqlanadi. shu sababdan, yashirin iqtisodiyotning muammolarini to'g'ri tushunib yetish uchun uning asosiy segmentlari va sektorlarini ajratish kerak.

Yashirin iqtisodiyotning asosiy sohalari. Yashirin faoliyatning turlarini farqlashning uch mezonidan foydalaniladi: ularni «oq» («birinchi», rasmiy) iqtisodiyot bilan bog'liqligi hamda iqtisodiy faoliyatning subektlari va obektlari. shu nuqtai nazardan yashirin iqtisodiyotni uch sektorga ajratish mumkin (1-jadval):

- «ikkinchi» («oq yoqalilar»),

- «kulrang» («norasmiy»);
- «qora» («maxfiy») yashirin iqtisodiyot.

Yashirin iqtisodiyotni o'rganish va tahlil etish taxminan yarim asrdan buyon davom etayotgan bo'lsa ham, olimlar va tahlilchilarda uni tahlil qilishning yagona yondashuvi hanuzgacha mavjud emas. Masalan, ingliz tilidagi manbalarda «informal economy», «underground economy», «shadow economy», «black economy» kabi atamalarni uchratish mumkin va bu atamalar turli tadqiqotchilarda turli ma'noni anglatadi.

«Ikkinchi» yashirin iqtisodiyot – bu «oq» iqtisodiyot ishchi va xodimlarining o'z ish joylarida yashirincha qonun bilan taqiqlangan iqtisodiy faoliyati bo'lib, ushbu faoliyat avval yaratilgan milliy daromadni yashirin qayta taqsimlanishiga olib keladi. Bu faoliyat bilan, asosan, boshqaruv personalidagi «salobatli odamlar» («oq yoqalilar») shug'ullanganligi sababli yashirin iqtisodiyotning ushbu turi «oq yoqali» deb nomlanadi. Jamiyat nuqtai nazaridan «ikkinchi» yashirin iqtisodiyot hech qanday yangi tovar va xizmatlarni yaratmaydi. «Ikkinchi» iqtisodiyotdan bir necha odamlar tomonidan olingan naf (daromad) boshqa odamlarning yo'qotishlari evaziga amalga oshiriladi. «Ikkinchi» yashirin iqtisodiyot – shaxsiy ehtiyoj va davlat tomonidan hisobga va ro'yxatga olinmaydigan ehtiyojlarni qondirish maqsadida alohida fuqarolar o'rtasida va ularning norasmiy birlashmalari o'rtasidagi mustaqil iqtisodiy munosabatlardir. Bu munosabatlar fuqarolarning davlatning xo'jalik mexanizmidagi xatolar, aholi talablari, xohishlari inobatga olinmasligiga qarshi aks ta'siridir.

Bular eng avvalo:

- a) soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashni rag'batlantiradigan darajada moliya va soliq siyosatining zaifligi;
- b) noqonuniy resurslar manbalariga tayanishga majbur etadigan darajada rivojlangan bozor tizimining mavjud emasligi;
- v) haddan ziyod va shu jumladan, qonunlarga xilof ravishda ma'muriylashtirilganlik.

1-jadval

Yashirin iqtisodiyotning farqlanish mezonlari

Asosiy belgilari	«Ikkinchi» yashirin iqtisodiyot	«Kulrang» yashirin iqtisodiyot	«Qora» yashirin iqtisodiyot
Subektlari	Rasmiy («oq») iqtisodiyot sektori menejerlari	Norasmiy bandlar	Professional jinoyatchilar

Obektlari	Ishlab chiqarishsiz daromadni qayta taqsimlash	Oddiy tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish	Taqiqlangan va defitsit bo'lgan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish
«Oq» iqtisodiyot bilan bog'liqligi	«Oq» iqtisodiyot bilan ajralmas	Nisbatan erkin	«Oq» iqtisodiyotga nisbatan avtonomdir

Manba: Latov Y.V., Kovalev S.N. Tenevaya ekonomika: Uchebnoye posobiye dlya vuzov./ Pod. red. d.p.n., d.Y.n., prof. V.Y.Kikotya; d.e.n., prof.g.M.Kaziaxmedova. – M.: «Norma», 2006. - S. 15.

«Kulrang» yashirin iqtisodiyot – qonun tomonidan taqiqlanmagan, lekin ro'yxatga olinmaydigan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va realizatsiyasi bilan shug'ullanuvchi iqtisodiy faoliyatdir. «Oq» iqtisodiyot bilan uzviy bog'liq bo'lgan va uning hisobiga tekinox'rlik qilib yashaydigan «ikkinchi» yashirin iqtisodiyotdan farqli o'laroq, «kulrang» yashirin iqtisodiyot nisbatan mustaqil faoliyat yuritadi. Litsenziya, soliq va boshqalarga ketadigan xarajatlardan qochish maqsadida xususiy ishlab chiqaruvchilar ataylab rasmiy ro'yxatdan o'tishmaydi yoki bu faoliyat to'g'risidagi hisobot umuman ko'rib chiqilmaydi. Bu tarmoqda mustaqil ishlab chiqaruvchilar yoki litsenziyaga ega bo'lish, soliq to'lash va boshqa shu kabi xarajatlardan qochib rasmiy hisobga olinishdan ongli ravishda bo'yin tovlashadi yoki bunday faoliyat to'g'risida hisobot umuman nazarda tutilmagan bo'ladi.

«Qora» yashirin iqtisodiyot (uyushgan jinoyatchilik iqtisodiyoti) – qonun tomonidan ta'qiqlab qo'yilgan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq noqonuniy iqtisodiy faoliyatdir. «Qora» yashirin iqtisodiyot rasmiy iqtisodiyotdan «kulrang» iqtisodiyotga nisbatan ko'proq ravishda ajralgandir. Keng ma'noda «qora» yashirin iqtisodiyotga normal iqtisodiy hayotga to'g'ri kelmaydigan, uni buzadigan barcha faoliyat turlari kiradi. Bu faoliyatga faqatgina zo'ravonlikka asoslangan qayta taqsimlash (o'g'rilik, bosqinchilik, tovlamachilik) emas, balki jamiyatni yemiradigan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish ham (narkobiznes, qimor o'yinlari, fohishabozlik, reket) kiradi.

Bunday faoliyat turlariga rasmiy iqtisodiy hayotda to'liq inkor etilgan, ular bilan kelisha olmaydigan rasmiy iqtisodiyotning buzilishiga olib keluvchi xatti-harakatlar kiradi.

Ushbu taklif etilayotgan tasniflashni absolyutlashtirish kerak emas. Yashirin iqtisodiyotning turli shakllari o'rtasida keskin chegara mavjud emas. Masalan, uyushgan jinoiy guruhlar norasmiy sektor korxonalaridan «o'lpon» yig'ishlari va o'zlarining

daromadlarini oqlab olish uchun legal tadbirkorlar bilan aloqalardan foydalanishlari mumkin.

Yashirin iqtisodiyotning rivojlanish sabablari. Yashirin iqtisodiyotning rivojlanishi, birinchi navbatda, davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishdagi zaiflik natijasida vujudga keladigan munosabat sifatida qabul qilinishi kerak. Tartibga solish cheklovlarisiz bo'lmaydi. Puxta o'ylanmagan cheklovlar ularga amal qilmaslikni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, ushbu cheklovlarning o'rnini cheklanayotganlarga nisbatan ma'lum naf belgilanmasa, yashirin iqtisod esa shu bilan birga biror naf keltirsa. Yashirin iqtisodiyotning ko'p turlari (masalan, soliq to'lashdan bosh tortish) davlat tomonidan tartibga solishning kamchiliklari: boshqaruvning byurokratlashtirilganligi, yuqori soliq stavkalari va h.k. bilan izohlanadi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, eng yaxshi markazlashtirilgan boshqaruv tizimiga ega mamlakat ham yashirin iqtisodiyot hajmini kamaytirishi mumkin, ammo butunlay yo'q qila olmaydi. Eng past soliq stavkalari holatida ham ma'lum bir soliq to'lovchilar soliq to'lashdan qochadi.

Ikkinchi tomondan qaraganda, zamonaviy yashirin iqtisodiyot faqatgina bozor erkinligini cheklash natijasida vujudga kelmagan, balki bozor munosabatlarining tabiatidan ham yuzaga kelgandir. Bozor xo'jaligi foydani ilohiylashtirishga, daromadga sig'inishga asoslangan holda shakllantiriladi. Shu sababdan bir lahzada katta daromadga ega bo'lish imkoniyati yuzaga kelganda ba'zi insonlar yoki insonlar guruhi jamiyat manfaatlaridan o'zlarining manfaatlarini yuqori qo'yishadi. Boylikka ega bo'lish ishtiyoqi ko'proq «ikkinchi» va «qora» yashirin iqtisodiyot uchun xosdir.

Yashirin iqtisodiyotning rivojlanish oqibatlari. Yashirin iqtisodiy faoliyat oqibatlarini bir xil baholash mumkin emas. Yashirin iqtisodiyotning ko'pgina turlari (ayniqsa «kulrang») rasmiy iqtisodiyotning rivojlanishiga to'sqinlik qilmasdan, balki unga ko'maklashadi.

Shveysariya iqtisodchisi Diter Kassel bozor xo'jaligida yashirin iqtisodiyot rivojlanishining uch ijobiy funksiyalarini ajratib ko'rsatgan:

1) «iqtisodiy moylash» – qonuniy (rasmiy) va yashirin iqtisodiyot o'rtasida resurslarni qayta taqsimlash yordamida iqtisodiy konyunkturada darajalar o'rtasidagi farqlarni tekislash (rasmiy iqtisodiyotda inqiroz bo'lgan davrda ishlab chiqarish resurslari o'z-o'zidan yo'q bo'lib ketmaydi, balki «soya»ga oqib o'tadi va inqiroz tugagandan so'ng rasmiy ko'rinishga o'tadi);

2) «ijtimoiy amortizator» – nomaqbul ijtimoiy qarama-qarshiliklarni yumshatish (xususan, norasmiy bandlik kam ta'minlanganlarning moddiy holatini yengillashtiradi);

3) «ichiga oʻrnatilgan stabilizator» – yashirin iqtisodiyot oʻzining resurslari bilan rasmiy iqtisodiyotni taʼminlab turishi (norasmiy daromadlar rasmiy sektorda tovar va xizmatlarni sotib olish uchun foydalaniladi, aylantirilib oqlanib olgan jinoyatchilik kapitali soliqqa tortiladi va h.k.) (Cassel D., Cichy U. The Shadow Economy and Economic Policy in East and West: A Comparative System Approach // The Unofficial Economy. Consequences and Perspectives in Different Economic Systems / Ed. By S. Alessandrini and B. Dallago. Gower, 1987. P. 140-141.).

Ammo umuman olganda yashirin iqtisodiyotning jamiyatga taʼsiri ijobiydan koʻra koʻproq salbiydir. Yashirin iqtisodiyotning «ikkinchi» va «qora» turlari eng katta zarar keltiradi. Bir tomondan, jamiyat daromadlarini nisbatan kam sonli imtiyozli guruhlar (byurokratlar, mafiya) foydasiga noijtimoiy qayta taqsimlanishi amalga oshiriladi. Ikkinchi tomondan, iqtisodiyotning markazlashgan boshqaruv tizimi buziladi: qoʻshib yozishlar hukumatda yanglish farovonlik hissini vujudga keltiradi, aslida esa chuqur islohotlar zarurdir; «yashirin» bandlik, hukumatning yangi ish oʻrinlarini yaratish boʻyicha harakatlari ishsizlikni kamaytirishga olib kelmaydi, ammo byudjet taqchilligini oshiradi va h.k. Yashirin iqtisodiyotning har qanday shaklining rivojlanishi xoʻjalik etikasiga putur yetkazadi. Agar bu tendensiyalar juda chuqur-lashib ketsa, insonlar umumqabul qilingan «oʻyin qoidalari» (umumiy tartib) toʻgʻrisidagi tushunchani yoʻqota boshlaydilar, «hamma narsa mumkin» shiori ostida yashay boshlaydilar, natijada jamiyat tartibsizlik va beqarorlikka yuz tutadi.

Bozor munosabatlariga oʻtish davrida MDH mamlakatlarida yuqori yashirin (eng avvalo yuqori darajada kriminallashtirilgan) iqtisodiy munosabatlar tizimi shakllana boshladi va u bir qator xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

Birinchidan, yashirin iqtisodiyot katta ulushga ega boʻlib, iqtisodiyotning dominant, norasmiy va gʻayrihuquqiy munosabatlar muhim oʻrin tutuvchi sektoriga aylanib bormoqda. Baʼzi MDH mamlakatlarida davlat apparatining yoppasiga korrupsiyalashgani, huquq va sud tizimi rolining sustligi, ularning maʼmuriy apparatga, yashirin moliyaviy kapitalga tobeligi bugungi kunning real voqeligidir.

Ikkinchidan, iqtisodiyot sohasida moliyaviy guruhlar (klanlar) shakllandi. Ular yirik kapital qoʻyilmalarini boshqaradigan davlat hokimiyati organlari «qanoti» ostida boʻlgan hokimiyat xoʻjalik tuzilmasi boʻlib, keng koʻlamdagi tadbirkorlik (eng avvalo, tijorat) faoliyati bilan shugʻullanadilar. Oʻz faoliyati bilan bu moliya guruhlari bozorda, asosiy tovar guruhlari bozorida va, ayniqsa, tashqi savdoda raqobat kurashini cheklaydilar. Yashirin moliya kapitalining iqtisodiyotdagi monopol hukmronligi orqali oʻta katta daromadlarni olishning yana bir oqibati aholi katta qismining qashshoqlashuvidir.

Uchinchidan, yashirin iqtisodiyotning rivojlanishi oqibatida mamlakatning byudjet tizimi buziladi, uning daromad va xarajatlarini taqiqlash yoki kamaytirish, cheklashlar yuzaga keladi. Moliya kapitali guruhlar byudjet mablag'laridan katta daromadlar olish uchun foydalanadilar, byudjet mablag'lari va davlat mulki bo'yicha turli qing'ir ishlarni amalga oshiradilar, davlatni bunday sharoitlarda moliyaviy muammolarni hal qilish uchun qarz mablag'larini olishga majbur etadilar. Shu bilan birga, bu voqelik iqtisodiyotning real sektori qisqarishi, korxonalar ko'p qismining sinishi va oxiroqibatda, ularning deyarli 30 foizi bankrotlikka uchrashiga, uchdan ikki qismini esa bankrotlik pog'onasiga olib keladi.

To'rtinchidan, yashirin iqtisodiyot milliy daromadni iste'mol qilishiga, foydaning yashirincha qayta taqsimlanishiga olib keladi. Yashirin daromadlarning ortib borishi, ularni yashirish ishbilarmonlarga xizmat ko'rsatuvchi noishlab chiqarish tuzilmalarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Aholi aksariyat qismining turmush farovonligini ta'minlovchi (xalq iste'mol buyumlarini ishlab chiqarish, sog'liqni saqlash, ta'lim va sh.k.lar) iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalar inqirozga yuz tutadi.

Beshinchidan, yashirin iqtisodiyot vakillari o'z kapitalining asosiy qismini xorijga olib chiqib joylashtiradilar. Ekspertlarning fikricha, Rossiyadan olib chiqib ketilgan kapital 150-300 milliard AQSh dollarini tashkil qiladi (<http://refru.ru/capital.pdf>). Bu tizim barqaror ravishda takror ishlab chiqiladi va bu takror ishlab chiqarishning bosh mexanizmi, shakllangan kriminal moliyaviy kapital umumdavlat miqyosida iqtisodiy-siyosiy qarorlar qabul qilishda amalda dominant roliga ega bo'lib, boshqa barcha xo'jalik subektlari ichida yuqori raqobatdosh bo'ladi.

Yashirin iqtisodiyot avj olgan sharoitda xo'jalik subektlari hokimiyatda, huquqni muhofaza qilish organlarida «himoyachi»lari yo'q bo'lganligi uchun oxir-oqibatda bankrotlikka yuz tutadilar. Korxonalar bozor iqtisodiyoti sharoitida tavakkaliga ishlaydilar, itoatkor bo'ladilar, tuzilmalarida soliq va to'lovlarni o'z vaqtida to'laydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yefimova O.V. Finansoviy analiz: sovremenniy instrumentariy dlya prinyatiya ekonomicheskix resheniy. /usheb. / O.V. Yefimova. - 5-ye izd., ispr. - M.: Omega-L, 2014. - 348s.
2. Kazakova N.A. Finansoviy analiz. /usheb i praktikum / N.A. Kazakova. - M.: Yurayt, 2014. - 539 s.
3. Brealey R.A., Mers S.S. Principles of sorporate finanse. McGraw-Hill, 2003.
4. Kumri Nomozova. Organizational and esonomis modeling of the system of

interregional industrial cooperation as a control object. Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems. 2023. – p. 333-343.

5. Kumri Isoyevna Nomozova. Problems of security of economic and ecological systems in the countries of the central Asian Region. International Conference on Next Generation Wired/Wireless Networking. 2023. – p. 177-195.

6. Kumri Nomozova. Evolyusiya teorii predprinimatelskogo riska v rabotax vidayushixsya ushenix proshlogo. Peredovaya ekonomika i pedagogicheskie texnologii. 2025. – s. 581-587.

7. Nomozova Qumri Isoevna. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq risklarni sug'urta vositasida boshqarish usullari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. - 4-7 b.

8. Kumri Nomozova. Mikrostraxovanie kak innovatsionniy mexanizm upravleniya riskami malogo biznesa. Ekonomicheskoe razvitiye i analiz, 2024. - s. 338-345.

9. Qumri Nomozova. Biznes risklarini sug'urtalash: zamonaviy sharoitlarda asosiy turlari va ularning xususiyatlari. Moliya va bank ishi. 2024. – 44-48 b.

10. Qumri Nomozova. Moliyaviy hisobotlar va ularni tuzish va auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning uslubiy jihatlarini rivojlantirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024.

11. Qumri Nomozova. O'zbekistonda tadbirkorlik tavakkalshiliklari sug'urtasini rivojlantirish istiqbollari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. – 7-10 b.

12. B.E.Toshmurodova Korporativ moliya strategiyasi– T.: "Iqtisod- moliya", 2013. – 128 b.

13. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliy. Darslik. – T.: "Sharq", 2010. – 804 b.

14. Van Xorn D.K. Osnovi upravleniya finansami/ D.K.Van Xorn; Per.s angl.; Gl. red. serii Y.V.Sokolov. -M: Finansi i statistika, 1996. - 800 s: il.

15. Publis Finanse: A Contemporary Application of Theory to Policy, Tenth Edition. David N. Hyman. 2010, 2011 South-Western, Sengage Learning

16. Malikov T., Jalilov P. Byudjet-soliq siyosati. – T.: "Akademnashr", 2011. – 472 b.